



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA`LIM VAZIRLIGI**

BUXORO MUXANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

MUXANDISLIK-TEXNIKA FAKULTETI

" _____ " KAFEDRASI

« _____ » FANIDAN

Решеніе

Bajardi:

Qabul qildi:

BUXORO– 2014

MAVZU: MAHSULOT SIFATI

Reja

1. Maxsulot sifatini muntazam oshirish xalk xujaligi soxalari samarali rivojlanish majburiy sharti.
2. Maxsulot sifatini texnik va iktisodiy va ijtimoiy va siesiy muamolari.

O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha turdagi sanoal korxonalarining rivojlanishi, avvalambor, iqtisodiy ko'rsatkichilarning yaxshilanishiga olib keladi. Ya'ni, bozorni yuqori sifatli texnika va mahsulotlar bilan to'ldirish iqtisodimiz gullab yashnashining yagona shartidir. Sifati past, mas'uliyatsizlik va yomon bajarilgan ish esa halq boyligini talon-taroj qilish, davlatimiz texnik hamda milliy boyliklaridan mas'uliyatsizlik bilan foydalanishdir. Respublikamiz oldida turgan asosiy masalalardan biri - ichki bozorlarimizni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlash va jahon bozorlarida raqobat qila oladigan mahsulotlar ishlab chiqarishdir.

Mahsulot sifatini oshirish - rivojlanishning obyektiv vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki rivojlanish davomida aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlari faqatgina yuqori darajadagi sifatli mahsulot va nisbatan a'lo xizmalni talab qiladi.

Yuqori sifatli mahsulotni xarid qilish oila byudjelini tejab ishlatishga, demakki, odamning ruhiyatini ko'tarishga hamda mahsulotni ishlab chiqaradiganlarga ham malum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqaradigan tashkilolning nafaqat yurtimizda, balki dunyo miqyosida obro'si oshadi.

Mahsulotning eksport salohiyatini kengaytirish, uning ishlab cliiqarish darajasi yaxshilanishiga olib keladi. Maxsulot sifatidan davlatning texnik takomillashgani va rivojlanganligiga baho bersa bo'ladi.

Mahsulot raqobatbardosh bo'lishi uchun o'zining yagonaligi, qurilmalarining yuqori darajadaligi va bajarilish sifati baland bo'lganligi bilan ajralib turishi kerak.

Fan-texnika rivojlanishi - xalq xo'jaligi rivojlanishining asosiy omilidir. Texnika yordamida ishlab chiqarish samaradoriigi oshadi, rivojlanish barkamollashadi. Yangi turdagi zamonaviy texnologiya qurilmalari mahsulot miqdorini oshiribgina qolmay, uning ishlab chiqarishini takomillaslitiradi va sjfatini oshiradi. Bu esa mahsulot sifati va mehnat darajasini, asosiysi, mahsulot ishiab chiqarishda ketadigan sarf-harajatni qisqartirishni kafolatlaydi. Demak, mahsulolni ko'p ishlab chiqarish emas, balki sifatli ishlab chiqarish maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun mahsulotning sifati va miqdori ishlab chiqarishning uzviy bog'liq juftligidir.

Sifat - bu son. Sifat orqali boyligimizni to'g'ri rejalaslitirishimiz, ya'ni ularni boshqa omillarga ham ishlatib, iqtisodiyotimizning, mehnat sifatini oshirislini rivojlantirsak bo'ladi.

Ishlab cliiqarishda tejash orqali mahsulot sifatini oshirish uning ishlab chiqarilishi, ishlatilishi, ishlatilish davri aniq ko'riladi (1-jadval).

1-jadval.

Mahsulot sifatini oshirish samaradorligi

Mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun	Malisulotni xarid qiluvchilar uchun	Xalq xo'jaligi uchun
--------------------------------------	-------------------------------------	----------------------

resurslanii a'lo darajada ishlatish, nuqsonli mahsulotlarni qayta ishlab chiqarish va reklamani imkon qadar qisqartirish; - mahsulot sotishda foydalanish oshirish; - mahsulot solishni tezlashtirish; -yuqori sifat uchun musobaqa ishtirokchilarni moddiy va ma'naviy rag'batlantirishni ta'minlaydi	- mehnat unumdorligini oshiradi; - talabni kam miqdordagi mahsulot bilan qondiradi; - ishlatilish chiqimini qisqartiradi; - mehnat sharoitini, insonlarning dam olishi, kunda-lik hayotini tobora yaxshilaydi; - yangi turdagi mahsulot sifatini oshiradi; - mahsulot ishlab chiqaradigan resurslarni tejaydi.	- jamiyat mehnatini tejaydi; - aholi va xalq xo'jaligining iulab darajasini ta'inintaydi: - fan, texnika rivojlanishini tezlashtiradi: - mahsulotlarni saqlash va sotish kabi ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi; - yuqori sifatli mahsulotning eksport salohiyatini kengaytirishga yordam beradi.
--	---	---

Xomasliyo va mahsulotni tejash, ulardan oqilona foydalanish ishlab chiqarishda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Iqtisodiyoida xomashyo va mahsulotni tejab ishlatish natijasida borgan sari yuqori darajali mahsuloi ishlab chiqarish, nuqsonsiz, sifatli mahsulotlarning xizmat muhlatini ishonib kafolatlashni ta'minlaydi. Sifati past mahsulot talabga javob bermaydi, bu esa sarf-xarajatlarni oshiradi. Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, reklama, transport, saqlash kabi ortiqcha xarajatlardan saqlaydi hamda mennat unumdorligini oshiradi.

Mahsulot sifatining mehnat unumdorligiga ta'siri, asosan, undan foydalanish davomida namoyon bo'ladi. Yuqori sifatli mahsulotni ishlatish - ishtalilishdagi chiqimlar va ta'mirlash ishlarini qisqartiradi. Buning natijasida tejalgan mahsulot ishlab chiqarishdagi ortiqcha sarf-xarajatlardan saqlaydi.

Mehnat unumdorligi mahsulotning ishlatilishdagi yuqori sifatliliigi uchun oshadi, tannarxi past bo'ladi. ishlab chiqarish uskunalari ikki barobar kam mehnat bajaradi, mehnat qilish sharoiti yaxshilanadi, nuqsonli mahsulotlar ishlab chiqarish tobora yo'qqa chiqadi.

Yuqori sifaili mahsulot ishlab chiqarish siyosiy, fan, texnika va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan muammolarni yechishdagi yagona yo'ldir.

Siyosiy ahamiyati - mahsulotni xaridorgir holda ishlab chiqarish, aholining talabini sifati yuqori mahsulot bilan ta'minlash va shunday rivojlangan jamiyat qurish sari ilgari yurishdir.

Fan va texnikadagi ahamiyati - mahsulot a'lo darajada ishlab chiqarilgan sari fan va texnikaning o'sishini, bu esa yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarishni ta'minlaydi.

Iqtisodiv ahamiyati - ishlab chiqarishda yuqori sifalli mahsulotni yaratishni tanminlaydi. Chunki aholi va xalq xo'jaligining talabini to'laroq qondiradi, ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, xomashyo va yoqilg'ini tejaydi, tashqi bozorda tovar raqobatbardoshliliigi va bundan kelib chiqib tejash orqali jamg'armalar foizini oshiradi.

28 dekabr' 1993yil «Metrologiya haqida» qonun qabul qilindi. Qonunni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kegashi qabul qildi.

Qonun 5 bo'limdan tashkil topadi:

1. Umumiy qoidalar

1- modda. Asosiy tushunchalar.

«Metrologiya» -o'lchovlar haqidagi fan.

«O'lchov vositari».
«Birlik etaloni».
«Davlat etaloni».
«Metrologik xizmat».
«Davlat metrologik nazorati».
«O'lchov vositalarini tekshirish».

2- Metrologiya bo'yicha faoliyatni davlat boshqaruvi.

Bu faoliyatni- O'zbekiston Respublikasi Vazirliklar Mahkamasi koshidagi sertifikatliya: metrologiya va standartlash bo'yicha o'zbek davlat markazi (O'zbekstandart) amalga ishiradi.

- birliklarni etalon yaratish, tasdiqlash, saqlash, va qo'llash qoidalarini belgilaydi.

- O'lchov vositasi, uslub va natijalarga umumiy metrologik talablarni aniqlash;

- davlat metrologik nazoratini amalga oshirish;

- metrologiya sohasida ilmiy va texnik kadrlarni tayyorlash.

III Bo'lim. O'zbekiston Respublikasi metrologik xizmati.

Metrologik xizmat-davlat metrologik xizmati va yuridik shahslarning metrologik xizmatidan tashkil topadi.

Davlat metrologik xizmatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar metrologik xizmat organlari kiradi.

Davlat metrologik xizmati organlari metrologik norma va qoidalarini rioya qilinishini nazorat qiladilar. Davlat metrologik nazoratni ob'ekti sifatida:

- etalon;

-o'lchov vositari;

-material va moddalarni tarkibi va hossalarni standart namunalari;

-o'lchov- ahborot sisitemalari;

-metrologiyani norma va qoidalarida ko'zda tutilgan boshqa ob'ektlari.

Davlat metrologik nazorati quyidagilarni qamragan.

-sog'liqni saqlash, veterinariya: tashqi muhit muhofazasini;

-moddiy boylik va energetik resurslar hisobini;

-tijorat, bojhona, potshta va sog'liq operatsiyalarini o'tkazish;

-tasdiq, tezener, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash, tashish va yo'qotish;

-davlat mudofaasini ta'minlash;

-mehnat muhofazasini va transport harakati muhofazasini ta'minlash;

-sertifikatsiyalangan mahsulotni sifati va havfsizligini ta'minlash;

-gidrometrologik va geofizik ishlarni;

-o'lchov vositalarini davlat tekshiruv, ta'miri va metrologik attestatsiyasini o'tkazish;

-milliy va xalqaro sport rekordlarini qayd qilishni va boshqa.

Davlat metrologik nazoratni turlari.

Nazorat quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

-o'lchov vositalarini sinovi;

-o'lchov vositalarini tekshiruvi;

o'lchov vositalarini yaratish, tekshirish, ta'mirlash, va sotish huquqini beradigan yuridik va jismoniy shahslarga litsenziya va akkreditatsiya berish;

-o'lchov vositalarini holatini, o'lchovlarni bajarish uslubini, metrologiya qoidalariga rioya qilinishini tekshirish.

O'zdavstandart qaroriga asosan kerak bo'lganda boshqa nazorat turlari kirilishi mumkin.